



Matlab XAZRATKULOV,

Renessans ta'lim universiteti "Ijtimoiy-siyosiy fanlar" kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi

Renessans ta'lim universiteti professori, falsafa fanlari doktori T.Jo'rayev taqrizi asosida

MILLIY VA MA'NAVY QADRIYATLAR YOSHLARDA BAG'RIKENGLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada yoshlarda bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy omillari o'rganiladi. Ta'lim, umumiy ma'naviy-axloqiy muhit, oilaviy tarbiya, ijtimoiy hodisalar va davlat siyosati kabi omillar yoshlarning bag'rikenglik, mo'tadillik va turli xillikka nisbatan munosabatlarini shakllantirish borasidagi tahlillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Bag'rikenglik, madaniyat, yoshlar, ma'naviy omillar, ta'lim, oilaviy tarbiya, ijtimoiy muammolar, davlat siyosati.

НАЦИОНАЛЬНО-ДУХОВНЫЕ ЦЕННОСТИ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ ТОЛЕРАНТНОСТИ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются социально-политические и духовные факторы формирования и развития культуры толерантности среди молодежи. Анализируются такие факторы, как образование, общая духовно-нравственная среда, семейное воспитание, общественные мероприятия и государственная политика в формировании установок молодежи на толерантность, умеренность и многообразие.

Ключевые слова: Толерантность, культура, молодежь, духовные факторы, образование, семейное воспитание, социальные проблемы, государственная политика.

NATIONAL AND SPIRITUAL VALUES AS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF A CULTURE OF TOLERANCE AMONG YOUNG PEOPLE

Annotation

This article examines the socio-political and spiritual factors of the formation and development of a culture of tolerance among young people. It analyzes factors such as education, the general spiritual and moral environment, family education, social events and state policy in the formation of youth attitudes towards tolerance, moderation and diversity.

Key words: Tolerance, culture, youth, spiritual factors, education, family education, social problems, state policy.

Kirish. Bugungi kunda dunyoda turli nizolar kuchayib borayotgan bir sharoitda millatlararo bag'rikenglik madaniyatini yoshlar ongiga singdirish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Dunyo tajribasidan bizga ma'lumki, davlatning barqarorligi davlatda yashayotgan millatlarning birdamligi, millatlararo munosabatlardagi turli muammolarni hal etish bilan bog'liq. Shu munosabat bilan millatlararo bag'rikenglik madaniyati ko'pmillatli davlat uchun tinchlik va barqarorlikni ta'minlovchi omil hisoblanadi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "...bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik xalqimizga doimo xos bo'lgan. Uning mentaliteti asosini tashkil etadi"[1]. Bugungi kunda yoshlar mamlakatimiz aholisining 60% ni tashkil etmoqda. Bu katta kuch ekanini yaxshi bilamiz. Shuning uchun yoshlarda bag'rikenglikni shakllantirish va ularni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini ko'rishimiz mumkin.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek, "Bizning keyingi yillarda erishgan eng katta yutug'imiz – bu umumiy xonadonimizda qaror topgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir"[2]. Bugungi kunda jamiyat hayoti va kishilar turmush tarzini yaxshilash uchun zarur iqtisodiy, ma'naviy tushuncha va qadriyatlarni yoshlarga ta'lim jarayonida singdirish mumkin.

Yoshlarda bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish — bu zamonaviy jamiyatda olib boriladigan ijtimoiy va ma'naviy siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Bag'rikenglik — bu turli millatlar, dinlar, irq va madaniyatlarga ega bo'lgan odamlar o'rtasida o'zaro hurmat, tinchlik va insonparvarlik hissinii uyg'otishga qaratilgan tushuncha. Bu jarayonda ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillar, o'zaro

integratsiya, inson huquqlari va adolatlilik prinsiplari markaziy ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning bag'rikenglik madaniyatiga bo'lgan munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishda bu omillar o'zining muhim o'rnini egallaydi.

Yoshlarda bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu omillar yoshlarning shaxs sifatida rivojlanishida, jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada yoshlar orasida bag'rikenglik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillariga keng to'xtalib o'tamiz.

Demokratik jamiyatlarda inson huquqlari va erkinliklari himoya qilinishi yoshlarda bag'rikenglik madaniyatini shakllantirishga katta yordam beradi. Qonunlar, huquqiy tizim va ijtimoiy siyosatlar yoshlarning ijtimoiy hayotga faol qatnashiga, turli millatlar, diniy va madaniy to'dalarga hurmat bilan qarashga o'rgatadi. Qonunchilik yoshlarga o'zaro hamjihatlik va bag'rikenglikni mustahkamlash uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Falsafa fanlar doktori N.Nazarovning fikricha "Shaxsning milliy davlatchiligiga bo'lgan pozitiv munosabati hamda fuqarolik mavqei inidrok etishi ham milliy o'zlikni anglashning komponentlari hisoblanib, tafakkur rivojiga imkon yaratadi. Tafakkurdagi bunday rivojlanish ko'p millatli jamiyatda millatlararo munosabatlar takomillashuvini ta'minlaydi. Bugun har bir millat vakili va har bir shaxs o'zligini bilib, milliy kelib chiqishini chuqur anglab, idrok etgan holda umumsivilizatsiya taraqqiyotiga hissa qo'shishi lozim"[3].

Ijtimoiy ahvol ham yoshlar uchun muhim omildir. Agar ijtimoiy shart-sharoitlar mukammal bo'lsa, yoshlar o'zaro mulog'otda va ijtimoiy munosabatlarda bag'rikenglikni ustuvor tanlashi mumkin. Buning natijasida jamiyatda fuqarolik jamiyatining rivojlanishi va ijtimoiy barqarorlik ta'minlanadi. Maxsus ijtimoiy dasturlar, yoshlar uchun tashkil etiladigan

treninglar va tadbirlar, ularning shaxsiy taraqqiyoti va jamiyatga bo'lgan munosabatlarini yaxshilashga ko'maklashadi.

Globallashuv sharoitidagi madaniyatlararo aloqalardagi ko'nikmalar yoshlarga bag'rikenglik va inklyuzivlikni targ'ib qilishga xizmat qiladi. Yoshlar boshqa millatlar va madaniyatlar bilan ijobiy aloqalarni o'rnatish va ularni hurmat qilishni o'rganishlari mumkin.

Media va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ijtimoiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Televizor, internet va ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar uchun qadriyatlar, axloqiy va ijtimoiy me'yorlar bilan bog'liq turli xabarlar tarqaladi. Agar media orqali ijobiy, bag'rikenglik va hurmatni targ'ib qiluvchi kontent tarqalsa, bu yoshlar o'rtasidagi ijtimoiy muammolarning oldini olish va yoshlar o'rtasidagi bag'rikenglikni rivojlantirishga yordam beradi.

Bizga ma'lumki, oila yoshlar uchun birinchi o'quv muassasi hisoblanadi. Oiladagi tarbiya, qadriyatlar va munosabatlar yoshlar shaxsining shakllanishida asosiy ahamiyatga ega. Agar oilada o'zaro hurmat, tushunish va bag'rikenglikka e'tibor berilsa, yoshlar ham shunday munosabatlarni jamiyatga nodavlat. Buning natijasida oiladagi tarbiyani isloh qilish yoshlar o'rtasida ijobiy axloqiy va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Jamiyatdagi bag'rikenglikni saqlashda oilaning ham roli katta. Oila mustahkamligi, xonadondagi to'g'ri tarbiya jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligi, ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu yoshlar o'rtasidagi hurmat va qadrimmat, turli millatlarning o'zaro munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, yoshlarda bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish orqali davlatni mustahkamlash, xavfsizlikni muhofaza qilish, ularni jamiyat tinchligi va farovonligini ta'minlash mas'uliyatini kuchaytirish, ayniqsa o'g'il-qizlarni milliy qadriyatlar asosida hayotga tayyorlash mumkin.

Mamlakatimizda yoshlarning axloqiy bag'rikenglik madaniyatini kamol toptirishda oilaning roliga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, "Mamlakatimizda bag'rikenglik madaniyatini yuksaltirish, millatlar va konfessiyalararo o'zaro bir-birini tushunish va hamjihatlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanadi..."[4]. Shu nuqtayi nazardan yoshlarda bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirish mezon va tamoyillarini aniqlash hamda uni oilaviy qadriyatlarda yuksaltirish tendensiyalarini tadqiq etish zaruriyat bo'lib qolmoqda.

Ta'lim jarayonida yoshlarga madaniyat, axloq va bag'rikenglikka asoslangan to'g'ri mafkura va qadriyatlar o'rgatilishi zarur. Maktab va universitetlardagi ma'naviy tarbiya va ta'lim dasturlari yoshlarga bag'rikenglikni shakllantirishga yordam beradi. Maktablarda yoshlarning o'zaro munosabatlari va ularning shaxsiy rivojlanishini targ'ib qilishda maxsus dasturlar va treninglar muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, o'qituvchilar va pedagoglar yoshlarga ijtimoiy ko'nikmalarni, turli millatlar, dinlar va madaniyatlarga bo'lgan hurmatni o'rgatishlari kerak.

Yoshlar ma'naviy rivojlanishida diniy va milliy qadriyatlar muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda milliy qadriyatlarga, ya'ni odamlar o'rtasida hurmat, yoshlarga kattalarga ehtirom, axloqiy me'yorlarga amal qilishga alohida ahamiyat berilgan. Din va milliy an'analar ham yoshlarda bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirishga ko'maklashadi. Har bir yosh o'z xalqi va madaniyatiga bo'lgan muhabbatini oshirish orqali bag'rikenglikni taraqqiy ettirishda faol ishtirok etishi mumkin. Tarixdan ma'lumki, diniy bag'rikenglik tamoyili ustuvor jamiyatda o'zaro hurmat va samimiyat qaror topadi. Insonlar osoyishta hayot kechiradi. Tinchliksiz taraqqiyot, farovonlik bo'lmagani kabi, diniy bag'rikengliksiz barqarorlikka erishmoq ilojiy.

1995-yil 16-noyabrda YUNESKO Bosh konferensiyasining Bag'rikenglik tamoyii to'g'risidagi

deklaratsiyasi qabul qilingan. BMT Bosh Assambleyasi qaroriga muvofiq, 1997-yildan buyon mazkur sana har yili butun dunyoda, jumladan O'zbekistonda ham "Xalqaro bag'rikenglik kuni" sifatida nishonlanadi. Yurtimizda bu an'anaga 2019-yil 15-noyabrda, Prezidentning "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni bilan asos solingan.

Bag'rikenglik bir-birini anglash, tushunish va qabul qilish demakdir. Yer yuzidagi turfa madaniyatga hurmat bilan yondashishga ham shu ta'rif beriladi. Bilim, samimiyat, vijdon va e'tiqod uyg'unligi natijasida yuzaga keladigan bu tushuncha faqat ma'naviy burchgina emas, balki siyosiy, huquqiy ehtiyoj ham sanaladi. Eng asosiysi, bag'rikenglik tufayli tinchlik ta'minlanadi, turli nizo, urushlar kelib chiqishining oldi olinadi.

Diyorimizda fuqarolar totuvligi, barqarorligi, turli millat vakillari tinchligi va hamjihatligini ta'minlash, milliy madaniy markazlar, do'stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish borasida ko'plab samarali ishlar olib borilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2017-yil Respublika baynalmilal madaniyat markazi va do'stlik jamiyatlari negizida O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan 16 diniy konfessiya, 135 dan ziyod millat va elat vakillari, 153 milliy madaniy markaz, 40 ga yaqin mamlakatlar bilan do'stlik jamiyatlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi[5].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev millatlararo bag'rikenglik madaniyati masalasiga asosiy e'tiborini qaratib, shunday deydi: "Biz O'zbekistonning buyuk kelajagini barpo etishga mahkam bel bog'lagan ekanmiz, bu ulug' ishni ertaga emas, bugun boshlashimiz, buning uchun avvalo navqiron yoshlarimizga zarur sharoitlarni aynan bugun yaratib berishimiz kerak"[6].

Xususan, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlari o'rtasida "O'zbekiston – bag'rikeng diyor" mavzusida insholar, videorolik va infografikalar tanlovlari, mahalliy va xorijiy mutaxassislar, turli konfessiya vakillari ishtirokida "O'zbekistonda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik madaniyati – boqiy qadriyat" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy seminar va boshqa tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Xulosa. Yoshlarda bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish — bu jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan jarayondir. Ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillar yoshlarning bag'rikenglikka bo'lgan munosabatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ta'lim, oilaviy tarbiya, davlat siyosati va ijtimoiy muhit yoshlar orasida bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirishning muhim mexanizmlari sifatida xizmat qiladi. Shunday qilib, yoshlarning bag'rikenglikka bo'lgan munosabatini shakllantirishda davlat, oila va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari zarurdir.

Yoshlarda bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonning samarali bo'lishi uchun ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillar muhim rol o'ynaydi. YA'ni, davlat siyosati, ta'lim tizimi, oila tarbiyasi, madaniyat va san'at, shuningdek, xalqaro hamkorlik va globallashuv jarayonlari yoshlar o'rtasida bag'rikenglikni shakllantirishga yordam beradi.

Ijtimoiy-siyosiy omillar yoshlarda bag'rikenglikni shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Demokratik jamiyat va qonunlar yoshlarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga, yoshlar o'rtasida turli millatlar, dinlar va madaniyatlarga hurmatni shakllantirishga asos bo'ladi. Ijtimoiy ahvol, fuqarolik jamiyatining rivojlanishi va medianing ta'siri yoshlarning bag'rikenglikka bo'lgan qarashlarini shakllantiradi. Mediadagi ijobiy kontent va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar o'rtasida ijtimoiy va madaniy aloqalarni mustahkamlash mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –T.: O'zbekiston. 2018. – B.295.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston. 1999. – B.9.
3. Nazarov N.A. Markaziy Osiyo polietnik sotsiumida millatlararo munosabatlar takomillashuvining falsafiy-funksional tadqiqi. Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – B.11.

4. Mirziyoyev Sh.M. "Islom hamjihatligi: O'zbekiston va Ozarbayjon misolida" mavzuidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga. – T.: 2017-yil, 18-oktyabr // Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: O'zbekiston. 2018. –B.455.
5. Ishmurotova S. Xalqaro bag'rikenglik kuni. https://uza.uz/uz/posts/halqaro-bagrikenglik-kuni_657778
6. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – T.: 2019. O'zbekiston. – B.387.